TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

G. A. Kurbonova	The Meaningful Life Journey of Sahibqiran Amir Temur Across the Ages	85
N. B. Kuvatova	The Educational Environment in Higher Education Systems: Theoretical Perspectives and Effectiveness	91
F. R. Khasanova	Implementing Virtual Tours and Intelligent Technologies in Museums of Uzbekistan: Challenges and Prospects	95
F. Muratova	Contemporary Requirements for Professional Practice in Psychology: Challenges and Strategies for Overcoming Them	98
D. Dj. Rashidova	The Role of Lifelong Learning in Human Capital Development	102
Y. Saburova	The Significance of the Third Renaissance in Societal Development	104
Sh. Kh. Buriyev	The Strategic Importance of Preserving Cultural Heritage in Societal Development: The Evolution of the Conservation, Restoration, and Preservation System for Museum Collections in Uzbekistan (1991–2025)	107
H. T. Usmonov	The Art of Calligraphy and Beautiful Handwriting	113
N. A. Yuldasheva *N. Tursunaliyeva* *S. Sh. Bekturdiev*	Digital Transformation in Primary Education: Contemporary Technologies and Future Development Prospects	116
S. V. Yuldashev *A. Sharafiddinov*	History Horse Breading in Ferghana Valley	120
M. Ch. Saidova	The Effectiveness of Peer Support Programs in Preventing Bullying in School Environments	124
Sh. Sh. Uzakov	Conceptual Foundations and Empirical Analysis of Poverty Reduction Through Improving the Entrepreneurial Environment	128

The Meaningful Life Journey of Sahibqiran Amir Temur Across the Ages

Kurbonova Gulchehra Abdullayevna (Doctor of Psychological Sciences, Associate Professor)[1]
gulchehra.qurbonova@mail.ru | ORCID: 0009-0001-7191-9482
[1.] Perfect University
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article examines Amir Timur's youth, his family, the lives of his family members, Timur Beg's political and military past, his achievements during his lifetime, the development of Uzbek folk music, including military and official music genres, as well as the classical art of maqam and the musical folklore of other Turkic, Arabic, and Persian-speaking peoples of the region. The great military leader Amir Timur made extensive use of musical instruments in his military campaigns; all his exercises and battles were accompanied by military music. He also introduced changes to the military functions of musical instruments, simplifying and systematizing their use, and codifying these rules in his famous "Tuzuk." Amir Timur's instructions are based on the idea of "glorifying military leaders with musical instruments." describe Amir Timur as a man of striking qualities, Sources a keen memory, passionate and decisive, eloquent, possessing great spiritual strength and a powerful personality. Amir Timur himself understood the power of music to influence emotions and skillfully utilized it. Not a single celebration in the palace was complete without music. During military campaigns, he never forgot his love of musical instruments. Timur was a tolerant, educated, and resourceful lawyer, a talented architect, orator, and psychologist. A number of his own discoveries have gone down in military history. For example, before an attack on a fortified town or village, trumpeters and drummers were carefully positioned.
Keywords: types of military-official music, influence of music on emotions, military campaigns, medicine, mathematics, jurisprudence, architecture, public holiday, high level of development

Sohibqiron Amir Temurning asrlarga tatigulik mazmunli umr yo‘llari

Kurbonova Gulchehra Abdullayevna (psixologiya fanlari doktori, dotsent)[1]
gulchehra.qurbonova@mail.ru | ORCID: 0009-0001-7191-9482
[1.] Perfect universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Ushbu maqolada Amir Temurning yoshligi, uning oilasi, oila a’zolarining hayoti, Temurbekning siyosiy-harbiy kechmishi, yashab otgan umrida amalga oshirgan ishlari, O‘zbek xalqi musiqasi qatori harbiy-rasmiy musiqa turlari mumtoz maqom san’ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arab, forsiyzabon xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topganligi haqidagi fikrlar berilgan. Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining harbiy yurishlarida cholg‘u asboblaridan keng foydalangan, uning barcha mashq va janglarida harbiy musiqa hamroh bo‘lganligi, shuningdek, u musiqa asboblarining harbiy funksiyalariga o‘zgartirishlar kiritdi, ulardan foydalanishni soddalashtirdi va tizimlashtirdi, bu qoidalarni o‘zining mashhur «Tuzuk»larida mustahkamladi. Amir Temurning ko‘rsatmalari harbiy boshliqlarni musiqiy asboblar bilan taqdirlash g‘oyasiga asoslanadi. Manbalarda sohibqiron Amir Temur — yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o‘tkir, shijoatli va qat’iyatli, bir so‘zli, zo‘r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta’riflanadi. Amir Temur o‘zi musiqaning his-tuyg‘ularga ta’sir imkoniyatlaridan boxabar bo‘lib, amaliyotda undan mohirona foydalangan. Hech bir saroyda o‘tkaziladigan tantana musiqasiz bo‘lmagan. Harbiy yurishlarda ham musiqiy asboblarga bo‘lgan ixlosini unutmagan. Temur shunday bardoshli, ilmli, qolaversa, qonunshunos, talantli me’mor, notiq, ruhshunos bo‘lgan. Uning harbiy amaliyot tarixiga kiritilgan o‘zining qator kashfiyotlari bor. Masalan, mo‘’jaz shahar yoki qishloqqa hujum boshlashdan oldin, u yerga ehtiyotkorlik bilan karnaychi va nog‘orachilar kiritilgan.
Kalit so‘zlar: harbiy-rasmiy musiqa turlari, musiqaning his-tuyg‘ularga ta’siri, Harbiy yurishlar, tibbiyot, riyoziyot, qonunshunos falakiyot, me’morchilik, ommaviy bayram, yuksak taraqqiyot

Temur Tarag‘ay ibn Barlos 1336-yil 9-aprelda, Shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz o‘ttiz oltinchi yilda, o‘n ikki hayvonli Turk yilligiga ko‘ra Sichqon yilida Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi uncha katta bo‘lmagan Xo‘ja Ilg‘or (Yakkabog‘) qishlog‘ida tug‘ilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u qo‘lida qip-qizil qon bo‘lagi bilan, sochlari esa mo‘ysafid kabi oppoq holatda tug‘ilgan.

Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi raisi Bo‘riboy Ahmedovning Amir Temur haqida hikoyalar kitobida yozishicha, Amir Kulol Amir Temur ikki muborak yulduz: **Mushtariy va Mirrix sayyoralari** o‘z burjida bir-biriga yaqin kelgan paytda tug‘ilganini va bu oliy martaba, kuch-qudratdan dalolat berishini aytadi. «Munajjimlar yaxshi biladirlarki, **Mushtariy** — baxt-saodat, **Mirrix** ersa kuch-qudrat manbai erur. Mundin ma’lumki, Tangri taolo o‘g‘loningga baxt-saodat, kuch-qudrat ato etmish. Qodiri egam aytibdurlar: «Biz ushbu ulug‘ ne’matni faqat o‘zimiz tanlagan kishilargagina ato eturmiz», — deya Kulolning Amir Tarag‘ayga (Temurning otasi) so‘zlaridan iqtibos keltiriladi hikoyada. Amir Kulol shundan keyin chaqaloqning qulog‘iga azon aytib, unga «Temur» deb ism qo‘yadi.

Amerikalik tarixchi Beatrice Forbes Manz xonim Temurbekning tug‘ilgan yilini o‘n to‘rtinchi yuz yillikning

yigirmanchi yillariga to‘g‘ri kelishini kabi o‘z ikkilanishli qarashlarini oldinga surib keladi va bu shubhalanishiga sabab qilib Temurbekning 1336-yilda tug‘ilganligi to‘g‘risidagi yozuvlar uning davridan keyin yozilganini va uning davriga tegishli bir nechta manbalardagi voqealarda Temurbekning yoshi uning 1320-yillar oxirida tug‘ilganini ko‘rsatishini aytadi (qarang, Tamerlane and the Symbolism of Sovereignty, B. F. Manz). Biroq birorta tarix kitoblarida Temurbekning tug‘ilgan yili 1336-yil emas, balki boshqa yil ekanligi to‘g‘risida belgi umuman uchramaydi.

Amir Temurning yoshligi haqida ma’lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o‘z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me’morchilik va tarix ilmlarini o‘rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtirganini ta’kidlaydi.

Uning otasi amir Muhammad Tarag‘ay turk avlodining barloslaridan bo‘lib, bahodir jangchi, ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo‘lgan. Movarounnahrda o‘ziga yarasha obro‘-e’tiborga ega, nufuzli ziyolilardan bo‘lgan. Uning ota-bobosi afsonaviy turkiy Alan quva shajarasidan kelib chiqqan bo‘lib, Chig‘atoy ulusining saroydagi obro‘-e’tiborli kishilari qatoridan joy olgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar ularga qarashlimulk hisoblangan.

O‘rta chog‘ turkchasida (Tarag‘ay –qoraquyruq ushi) barlos qabilasining beklaridan biri va qabilaning asosiy 5 ta urug‘idan birining yetakchisi edi (The rise and rule of Tamerlane, B. F. Manz va The Mongol Period B. Spuler). Tarag‘aybek Chig‘atoy ulusining taniqli beklaridan biri bo‘lib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Amir Tarag‘ay yillik Ili daryosi bo‘yida Xon tomonidan chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga chaqirilgan hamda bunday yig‘inlarda qoldirmasdan qatnashgan. Butga topinuvchi o‘laroq tug‘ilgan Tarag‘aybek Chig‘atoy ulusi orasida birinchilardan bo‘lib islom dinini qabul qilgan. Otasi Barqul Noyondek Tarag‘aybek siyosat ishlariga qiziqmagan, asosan islom dinini o‘rganish bilan umrini kechirgan. Temurbek tez-tez qabrini ziyorat qiladigan, keyinchalik qabri ustiga maqbara (1373–1374) qurdirgan Shamsiddin Kulol Tarag‘aybekning piri bo‘lgan.

Onasi Takina xotun yoki Takina mohibegim to‘g‘risida ma’lumotlar kam. Zafarnoma (Yazdli Sharafiddin)da yolg‘iz otigina so‘zlanadi. 1403-yilda Temurbek Jenoa, Fransiya, Angliya qirollariga elchi qilib yuborgan, Sultoniya bosh rohibi (archiepiscopus) Johannes de Galonifontibus Takina Xotunning oddiy oiladan ekanini yozadi. Temurli saroyida yozilgan, biroq yozuvchisi aniq bilinmagan Muyizz al-Ansab (Izzatli nasablar) asarida Takina Xotun barlos qabilasi bilan chegaradosh bo‘lgan Chig‘atoy ulusining Yasaur qabilasidan ekanligi yoziladi. Temurbek bilan yuzma-yuz so‘zlashgan Ibn Haldun (1400–01) Temurbek onasini afsonaviy „Avesto“ bahodiri Manuchehrning avlodidan ekanligini aytganini yozadi. Temurbekning siyosiy kitobyozar raqibi Ahmad ibn Arabshoh o‘z Ajoyib ul-maqdur fi navaib (fi axbor) at-Taymur (arabcha: في رودقملا بئاجع بئاون يتيمور – o‘zbekcha: Temurdagi taqdirning ajoyibotlar) asarida uning Chingizxonning naslidan ekanligini yozadi. 18-yuzyillikda yuzaga chiqqan Temurbek kimligi to‘g‘risidagi kitoblarda Takina Xotun Buxoro „Sadr ash-Sharia“ (Shariat qonunlarini izohlovchi)si Ubaydullo Mahbubiyning qizi o‘laroq tanitiladi. O‘zbek tarixchisi Turg‘un Fayziyez o‘zining „Temuriylar shajarasi“ (Toshkent, 1995) kitobida Temurbekning onasi to‘g‘risida „Jangnomayi Amir Temur Ko‘ragon“ kitobiga tayangan holda Buxoro ulamolarining eng ulug‘i „Sadr ash-Sharia“ning qizi ekanligini bildiradi.

Temurbekning opasi Qutlug‘ Turkon og‘o va singlisi Shirinbeka og‘o edi. Ular Temurbekdan oldin o‘lishgan va Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralarda ko‘milishgan.

Arabcha sohib (بحاص) va qiron (yaqinlik, yaqinlashma) so‘zlaridan tuzilib forscha sohib-i qiron (بحاص كاران) holiga kelgan Sohibqiron so‘zi yulduzbilimchilari tomonidan Mushtariy (Yupiter) yulduzi va Zuhro (Venera) yulduzining bir burjda to‘planganligi asosida tug‘ilgan kishi ma’nosida qo‘llangan. Bu sifat baxtli, qutli va doimo g‘olib va jahonolar kishilarni ifoda etish uchun ishlatilgan. Amir Temurgada bu sifat Sohibqiron va yoki hazrat Sohibqiron shakllarida qo‘llangan. Temurbek 1362-yilda Seyistonga birinchi kelishi chog‘ida o‘ng oyog‘idan va o‘ng qo‘lidan Mamaqtuv tomonidan yoydan otilgan o‘qdan yaralangan. Ayricha Temurbekning siyosiy raqiblari tomonidan unga so‘kinish ma’nosidagi Temur-i lang (forscha: تیمور لنگ) nomi qo‘llangan. Oqsoq Temur va yoki cho‘loq Temur ma’nosida kelgan Temurlang so‘zi kunbotar (g‘arb) ellari tomonidan Tamerlane, (inglizcha), Tamburlaine (inglizcha), Tamerlan (fransuzcha), Tamorlan (ispancha), Tamerlanis (lotincha), Timurlenk (usmonli turkcha) va Temur Aksak, Tamerlan (ruscha) kabi shakllarda o‘zlashtirilgan.

1370-yilda Chingizlilar xonadonidan bo‘lgan Qozonxonning qizi Saroy Mulk Xonim (Bibi Xonim)ga uylanishi ortidan Temurbek Temur Ko‘ragon (تیمور نگورک) va yoki Temur Guragon otini oladi. Ko‘ragon (xyrgen) mo‘g‘ulcha kuyov so‘zi bo‘lib „Xonning kuyovi“ ma’nosida qo‘llangan. Chingizxonning qonidan bo‘lmaganligi uchun Xonlik otini olmaydi, musulmonlarning boshi o‘laroq Amir otini oladi. Temurbek Islom dini bilimlariga tayanib yurishlar qiladi va o‘zini „Islom qilichi“ sifatida taniltiradi. Islom dinini yoyish yo‘lida qilgan yurishlaridan keyin Abu Fotih otini oladi. 1402-yilda Izmir qal’a qamalida katolik Hospitaller (lotin, Ordo Fratrum Hospitalis) larini, Gurjiston (Gruziya) nasroniylarini bir necha bor yutishi ortidan Abu G‘oziy otini oladi. Turklar o‘z odatiga ko‘ra o‘z yetakchilarini Bek deb atashardi. Shu yuzdan Temurbek ham Bek otini oladi. 1404-yilda Samarqandda bo‘lgan Kastiliya (ispaniya) elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘zining sayohat qo‘lyozma kundaligida ham Temurbek otini qo‘llaydi.

Temurbekning turk yoki mo‘g‘ul ekanligi to‘g‘risadagi bilimlar yolg‘iz kunbotar olamidagina tortishmali. Rui Gonsales de Klavixo Temurbekning kelib chiqishini Chig‘atoy ulusining ellariga bog‘lasa, nabirasi Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek nomi bilan tanilgan) „Tarix-i arba ulus“ kitobida Shajarat al-atrak (Turklar kelib chiqishi)ni ko‘rsatadi va unga ko‘ra Temurbek va ota-bobolari Yofas o‘g‘li Turkning bolalari ekanligini aytadi. Turk otli kishi esa butun turklarning otasi ekanligi ko‘rsatiladi. Kunbotar ellarining o‘tmish yozuvchilari o‘rtasida Temurbekni turk-mo‘g‘ul yoki turklashgan mo‘g‘ul kelib chiqishli ekanligi keng yoyilgan. Biroq Richard Bulliet (A Global history) Temurbekning qabilasi Barloslarning mo‘g‘ullarga aloqasi yo‘qligini so‘zlasa, Rene Grousset (qarang, L’empire des steppes, Atilla, Gengis-Khan, Tamerlan,1939 Paris) Temurbekning kelib chiqishi Chingizxonga bog‘langanligini yolg‘iz o‘z chog‘ida yozilgan kitoblardagina ekanini, biroq uni mo‘g‘ullik bilan umuman birligi yo‘qligini va Turk ekanligini yozadi.

Temurbek tarixi bo‘yicha 3 salmoqli kitobdan birisi sanalgan Ahmad ibn Arabshohning „Ajoyib ul-maqdur fi navaib at-Taymur“ kitobida bo‘lsa Temurbekni barlos turki ekanligini yoziladi: „Turklarda ham Arablarda bo‘lganidek qabilalar va urug‘lar bordir va har bir qabilada vazir (qabilaboshi) bordir. U o‘z qabilasi ichida yashash tarzi bo‘yicha maslahat beradigan yorituvchi chiroqdir. Ulardan birinchisi Arlot, ikkinchisi

Jaloyir, uchinchisi Qavchin, to‘rtinchisi Barlosdir. Temur (bek) to‘rtichisidan chiqqandir“. Temurbek Turk ekanligidan g‘ururlanar, o‘z o‘rnida o‘ziga qarata aytilgan Mo‘g‘ul so‘zini yomon ko‘rardi (Yusuf Husayn Xon, Two studies in early mongol history, 1976). O‘zbek tarix yozuvchilari Temurbekning so‘zsiz turk bo‘lganligini aytib keladi. Temurbekning o‘zi yozganligi aytiladigan Mulfazot-i Temuriy (Temur qissalari yoki Temur tuzuklari) kitobida Tarag‘aybek o‘g‘li bilan so‘zlashganda (Zuhriddin Bobokalonov, 2004, 48-bet) turk kelib chiqishli ekanligini aytgani yoziladi. Temurbekning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Tarag‘aybek o‘z chog‘ining odatlariga ko‘ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o‘q otishni o‘rgatuvchilarni tayin qiladi. Shu yuzdan Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo‘rqmas bahodir bo‘lib ulg‘ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o‘qimishsiz bo‘lganligi to‘g‘risida kunbotar ellari o‘rtasida yanglish qarash ular chindek o‘rnashib qolgan. Temurbek o‘zi to‘g‘risida kitobida 21 yoshga to‘lganida otasining hosili yaxshi bo‘lganini, qoramol va yilqilar ko‘p bolalaganini, o‘zi ularni 10 tadan qilib ishchilariga bo‘lib berganini yozadi. Temurbekning yoshlik yillari to‘g‘risida bilgilar juda oz.

Temurbekning til bilimlari haqida gapiradigan bo‘lsak, Temurbek o‘z ona tilisi chig‘atoy (eski turkcha yoki eski adabiy o‘zbekcha)cha va forschada so‘zlashgan. Temurbek arabcha so‘zlasha olmagan va mo‘g‘ul tilida so‘zlasha olganligiga tegisgli bilgilar tortishmali. Uning davrida Turk (Eski o‘zbek adabiy tili) cha – so‘zlashuv, qo‘shin boshqarish, adabiyot va davlat ishlari tili, forscha – huquq, davlat ishlari, adabiyot va so‘zlashuv tili, arabcha – din tili bo‘lgan. O‘rta chog‘ davlatlariga bo‘lganidek Temurbek davlatida ham asosiy huquqiy ishlar – soliqlar yig‘ish, g‘aznachilik ishlari, moliya ishlari fors tilida olib borilgan. Temurbek o‘z yurishlari chog‘larida yilyozarlariga kunlik ishlarni Turkcha va forscha tillarda yozib borishlarini buyurgan. Temurbek o‘tmishining bilingan 3 ta tamal asaridan 2 tasi, Nizomiddin Shomiy – Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy – Zafarnoma, aynan shu kunlik qo‘lyozmalarga asoslanib yozilgan kitoblardir. Rasmiy yozuv turi esa arab alifbosiga asoslangan fors va turk (eski uyg‘ur alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvi) yozuvlari edi.

28.03.1391 – yilda (Yazdiy, Zafarnoma, 119a) Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxonga qarshi yurish chog‘ida Temurbek hozirgi Qozog‘istondagi Ulug‘ tog‘da askarlariga tosh keltirishlarini buyuradi va toshga o‘yib bitik yozdiradi. Nizomiddin Shomiy Zafarnomasida esa 28.04.1391 da ushbu bitik bitilganligi yoziladi. Bu bitikda 3 qator arabcha va 8 qator turklarning o‘z yozuvi bo‘lmish eski uyg‘ur yozuviga asoslangan eski adabiy o‘zbekchada yozig‘ yozilgan. Bu bitik 1935-yil avgust oyida Ulug‘ tog‘dan kunbotar (g‘arb)da yerlashgan Qaramo‘la tog‘ yon bag‘ri oldidagi Qarsaqpay mis koni yaqinida qozoq geologi Qanish Satbayev tomonidan topilgan. Bu yuzdan Qarsaqpay bitigi ham deb ataladi. Bitik bugungi kunda Sant-Peterburg (Rossiya Federatsiyasi)da Ermitaj muzeyida saqlanadi.

Temurbekning siyosiy-harbiy kechmishi, Temurbekning siyosatga kirib kelishi 1358-yil Qazag‘anbekning o‘limidan so‘ng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chog‘ida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo‘g‘uliston) xoni Tug‘luq Temur Movarounnahrga yurish qiladi. Tug‘luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo‘lgan yerlar topshiriladi. Tug‘luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo‘shin yig‘adilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to‘qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida to‘qnashishadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1361-yil martda Tug‘luq Temur yana Movarounnahrga yurish qiladi. Temurbek yana Tug‘luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrga xon qilib Ilyosxo‘ja, Tug‘luq Temurning o‘g‘li, tayinlanadi. Tug‘luq Temur o‘z yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan uchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. Moxonda qamoqda bir necha kun qolgan beklar Muhammadbek, Alibekning akasi, tomonidan ozod qilinadi. Temurbek Seyiston tomon yuradi. Temurbek va Husaynbek Seyiston hokimi so‘rovi va bergan so‘zlariga ko‘ra uning yovlariga qarshi urushishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Seyiston hokimi so‘zini ustidan chiqmaydi. Temurbek Seyistondan qaytishida Sagziylar Mekrondan kelib Temurbek va yo‘ldoshlariga tashlanishadi. Sagziylar qo‘shini chekinadi. Temurbekning o‘ng qo‘li va o‘ng oyog‘i yaralanadi. Temurbek Garmsirga keladi va tuzaladi. Keyin Balxga qarab boradi va Abdulloh arig‘i oldida, Abu Said, Mangli Bu’ga, Haydarlarga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Dashti Ko‘lankaga keladi. Toshko‘prik yaqinida Temurbek Yumkon o‘g‘li Temur, Sariq, Shingum va Tug‘luq Xo‘jaga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubba-i metinda Ilyosxo‘ja bilan to‘qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qobulshoh O‘g‘lonni Movarounnahrga xon qilib ko‘taradi. Ilyosxo‘ja yana Movarounnahrga yurish qiladi.

1365-yil 22-mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo‘yida Loy jangi bo‘lib o‘tadi. Temurbek bo‘linmasi qarshi tomon bo‘linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur bo‘ladi. 1366-yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig‘ini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yag‘mo etib qaytadi. Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo‘lga olib Suyurg‘otmish O‘g‘lonni xon qilib ko‘taradi. 1370-yil Temuriylar davlati quriladi[4].

Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining harbiy yurishlarida cholg‘u asboblaridan keng foydalangan, uning barcha mashq va janglarida harbiy musiqa hamroh bo‘lgan. Shuningdek, u musiqa asboblarining harbiy funksiyalariga o‘zgartirishlar kiritdi, ulardan foydalanishni soddalashtirdi va tizimlashtirdi, bu qoidalarni o‘zining mashhur «Tuzuk»larida mustahkamladi. Amir Temurning ko‘rsatmalari harbiy boshliqlarni musiqiy asboblar bilan taqdirlash g‘oyasiga asoslanadi. Manbalarda sohibqiron Amir Temur — yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o‘tkir, shijoatli va qat’iyatli, bir so‘zli, zo‘r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta’riflanadi.

Amir Temur saroyida ko‘plab ilm-ma’rifat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu’moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo‘lib, uning xizmatida bo‘ldilar. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi

sohalari ravnaqiga katta e'tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi».

Amir Temur va uning saltanati vorislari – temuriylarining deyarli hammasi hunar va san'at ahliga hurmat bilan qaraganlar, ularning mehnati va san'atini qadrlaganlar shu bois, ular podsholigida madaniy hayot va muhit taraqqiy etgan.

Musiqaning boshqa san'atlar qatorida muhim o'rin egallash uchun zamin, Temuriylar hukmdorligi mobaynida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o'tmasligi bo'lgan. O'zbek xalqi musiqasi qatori harbiy-rasmiy musiqa turlari mumtoz maqom san'ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arab, forsiyzabon xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlik timsollariga aylangan. "**Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar**", - deb yozadi Amir Temur . Amir Temur o'zi musiqaning his-tuyg'ularga ta'sir imkoniyatlaridan boxabar bo'lib, amaliyotda undan mohirona foydalangan. Hech bir saroyda o'tkaziladigan tantana musiqasiz bo'lmagan. Harbiy yurishlarda ham musiqiy asboblarga bo'lgan ixlosini unutmagan. Uning harbiy amaliyot tarixiga kiritilgan o'zining qator kashfiyotlari bor. Masalan, mo''jaz shahar yoki qishloqqa hujum boshlashdan oldin, u yerga ehtiyotkorlik bilan karnaychi va nog'orachilar kiritilgan. Erta tongda bexosdan bu asboblarning yangrashi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergan. Temuriylar davrida, saroylarning bosh darvozalari tepasiga maxsus nog'oraxonalar qurish odat tusiga kirgan, bu hol musiqa san'atiga bo'lgan e'tiborning yana bir yorqin dalilidir. Ma'lumki, saroy musiqiy guruhlari asosan karnaychi va nog'orachilardan iborat bo'lgan, yetakchilarni "mehtar" deb atashgan. Ular ommaviy bayram va tantanalarda faol qatnashganlar. Temur davriga xos bo'lgan ma'naviy ko'tarinkilik musiqa san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat tug'dirib berdi: sozandalik, xonandalik, musiqa ta'limi, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi, bularning barchasi kamol topdi.

Asrlar davomida shakllangan an'anaviy "ustoz-shoird" ta'lim tizimi keng quloch yozdi. Musiqa ustozini hammadan ustun qo'ygan, "ustozlar ustozi" deb ulug'langan Alisher Navoiy (o'zi ham musiqiy ilmga ega bo'lgan, ayrim musiqiy asarlar ham yaratgan) o'zining "Sab'ai-sayyor" asarida: San'atim anda soz cholmoq ishi Bilmayin men kabi ishimni kishi Ilmi advori fanni musiqiy Mendan ul ilm ahli tahqiqiy - kabi misralar keltirilgan.

Shu bois Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida musiqaning o'ziga xos o'rin egallagani tasodif emas, bundan tashqari, Navoiy taxallusining o'zi ham nufuzli musiqiy atama "navo" so'zidan o'zak olgandir.

Musiqa asoslarini alifbo saboqlari bilan birga olgan, ustozi o'z davrining yirik musiqashunosi va bastakori Xoja Yusuf Burhon bo'lgan.

Navoiy o'z asarlarida ustozining ijodini maqomlar shakllanishiga bevosita aloqasi borligini yozadi. Chunki "Isfaxon" kuyi, aniqrog'i, maqom (parda tizimi), Amir Temur va temuriylar davridagi "Duvozdaxmaqom" turkumi tarkibidagi uchinchi edi. Navoiyning musiqa madaniyatini izchil e'tirof etishiga uning Xoja Yusuf Burxon qo'lida ta'lim olgani, umri davomida musiqa san'ati namoyondalari bilan doimiy muloqotda bo'lganligi ijobiy ta'sir etgan. Allomaning Qomusiy "Xamsa"sini, besh qo'shiq deb idrok etish mumkin. Ya'ni: "Hayratul abror"-falsafiy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan qo'shiq, "Farxod va Shirin" – jasorat va vatanparvarlik qo'shig'i, "Layli va Majnun" betakror sevgi qo'shig'i, "Sab'ai-Sayyor – vafodorlik qo'shig'i", "Saddi Iskandariy"- axloqiy qo'shiq deb atalishi mumkin.

Umuman olganda Alisher Navoiyning she'rlarini qo'shiq deb ham faraz qilsa bo'ladi, chunki aksariyatiga shoir zamondoshlaridan tortib, bugungi kun ijodkorlariga qadar musiqa yaratishgan, ya'ni ularni musiqalashtirishgan.

Temuriylar zamonida yashab ijod qilgan yana bir yirik musiqashunos Alisher Navoiyning ustozi Abduraxon Jomiydir. Jomiy musiqiy asarlar va Risolai musiqi"ning muallifidir. Jomiyning fikricha, musiqaning tarkibiy qismlarini o'rganish "yanada go'zal va nafis san'at" yaratish uchun kerakdir. Jomiyning yangi usullar yaratishida "chegara yo'qligi", "ixtiyor etgan kishi yangi usul yarata olishi" haqida fikr yuritilgan. Bu risola Alisher Navoiy iltimosi bilan yozilgan degan ma'lumot bor. Mazkur risola ijrochi, bastakor, olimlardan o'z shaxsiy tajribalarini ishga solishga undar ekan. Temur va temuriylar davrida musiqiy ijod va ijroning shiddat bilan rivojlanib borishi musiqiy risolanavislikka ham ta'sir etmay qolmadi. Shu davrga oid qator risolalar saqlanib qolgan, ular musiqa ilmining yuqori saviyasidan dalolat beradi, musiqaning muhit timsollari tizimi, o'rganilayotgan davrning musiqa bilan bog'liq barcha xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, Zaynulobiddin al-Xusayniyning "Qonun-i ilmi va amali musiqiy" risolasi Alisher Navoiyga bag'ishlangan.

Sohibqiron Amir Temur va uning bir necha pag'onadagi vorislari davrida musiqa san'atining barcha (bastakorlik, ijrochilik, ilm va maxsus ta'lim kabi) jabhalari – o'z tarixidgi eng yuksak taraqqiyot pallalariga ko'tarilganini biz, har bir qilingan ishi, erishgan muvaffaqiyatlari orqasidan qilgan ommaviy sayil-u tomoshalarida ko'rsak bo'ladi. Bu misralar bilan biz yana va yana shunga iqror bo'laveramiz, ularning xalqiga, san'atiga, madniyatiga bo'lgan e'tiborining kuchliligidan dalolat beradi.

Amir Temurning hokimiyat boshqaruvi chog'i Temurbek Amir unvonini oladi va Samarqandni boshshahar etib belgilaydi.

1370-yil kuzida yirik Qurultoy o'tkazadi. 1371-yil Amir Temur Jeta tomon 2 bora yurish qiladi. Hevak o'lkasi va Kot shahri aslan Chig'atoy ulusining yerlari bo'lsada, biroq u yerlar soliqlarini Xorazmdagi So'fiylar yig'ar edi. 1372-yil bahorda bu yerlarni qaytarishni ko'zlab Temurbek Xorazm tomon ilk yurishini qiladi. Temurbek Qot qal'asini qamal qiladi va qal'ani egallaydi. Temurbek Qovun arig'iining oldida Husayn So'fiy bilan urushib dushmanni yengadi. Husayn So'fiy yengilishdan so'ng Xorazmga qarab chekinadi va o'sha yerda o'ladi. Temurbek Yusuf So'fiy bilan yarashadi va ortiga qaytadi. Qaytish ortidan Yusuf So'fiy Kotni talaydi. Temurbek 2-bora Xorazm tomon yuradi. Temurbek qudachilik qilish uchun bu gal Xorazmni urmaydi. 1375-yil yanvarda Temurbek Jeta tomon 3-bora yurish qiladi. Ili daryosi bo'yida urushda Temurbek dushmanni yengadi. 1376-yil Temurbek Xorazm tomon 3-yurishini qiladi. Biroq bu yurish chog'ida Sari Bug'a va Odilshoh yovlik yo'liga o'tgani uchun ortiga qaytadi. Keyi 4-bora Jetaga yurish qiladi. Temurbek qo'shini Jeta xoni Qamariddinni to'la yengadi. Shu yili to'ng'ich o'g'li Jahongir Temuro'g'li o'ladi. Temurbek 5-bora Jeta tomon yuradi va To'qtamish o'g'lon bilan uchrashadi. To'qtamishga Sig'noq va Sabron o'lkalarini beradi. 1376-yilning o'zida Temurbek O'risxon tomon qo'shin tortadi. Jayron Qamishda yog'iy qo'shinini yengadi.

1377-yilda Samarqandga qaytadi. Temurbek qaytishi ortidan To‘qtamish hokimiyati yiqiladi. Temurbek To‘qtamishni yana qo‘llaydi va qurol-yaroq bilan ta’minlaydi. 1379-yil Temurbek Xorazm tomon 4-bora yurish qiladi. Xorazm qal’a qamalida Yusuf So‘fiy Temurbek bilan birga-bir urushishni so‘raydi. Temurbek so‘rovni sharaf bilib yolg‘iz o‘zi qal’a ostiga boradi. Biroq Yusuf So‘fiy tashqariga chiqmaydi. Temurbek qal’ani egallaydi. 1381-yilda Temurbek Eron o‘lkasi tomon qo‘shin tortadi. Temurbek ketma-ket Fushanj qal’asini va Hirotni o‘z davlati yerlariga qo‘shib oladi. Keyin Samarqandga qaytadi. 1382-yil boshlarida Xuroson tomon yurish qiladi. Kalot qal’asi va Tushriz qal’asini egallaydi. Ortidan Mozandaron Tomon yo‘l oladi. Biroq Alibekning Kalotga yurishi yuzidan Temurbek orqaga qaytadi. Keyin Samarqandga qaytadi.

1383-yil yozida Temurbekning xotini Dilshod og‘o va egachisi Qutlug‘ Turkon og‘o o‘ladi. Jeta tomon qo‘shin jo‘natgan Amir Temur o‘zi Mozandaron tomon yuradi. 1383-yil kuzida Sabzavor qal’asi yiqitildi. Temurbek Seyiston tomon yo‘l oladi. Rizo qal’a qamalida Shoh Qutbiddinni yengadi va Seyistonni oladi. Keyin Bo‘st tomon yuradi. Qal’ayi Toqni va Bo‘st qal’asini egallaydi. Hirmand daryosi bo‘ylab yurib Hazorbaro qal’asi(dinsizlar qal’asi) va Dahna qal’asini egallaydi. Qaytishda Afg‘oniylar bilan urushda dushmanni yengadi. Seyiston va Zobuliston qo‘shilishi ortidan Temurbek Samarqandga qaytib keladi. 1384-yil bahorida qayta Mozandaron tomon yo‘l oladi. 1385-yil yozida Sultoniya shahrini oladi. So‘ngra Omul va Sori o‘lkalarini qo‘l ostiga kiritadi va Samarqandga qaytadi.

Temurbekning Eron o‘lkalaridan qaytishi ortidan To‘qtamishxon Eronga bostirib kiradi va shahar va qishloqlarni talaydi. 1386-yil o‘tmishda 3-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. Luristonda qaroqchilar urilishidan keyin Ozarbayjon yerlari tomon yo‘l oladi. Sulton Ahmad Tabrizni tashlab qochishi yuzidan Temurbek Tabrizni oladi. Gurjistonga qarab yurishda Garni, Sarmoluka va Qars qal’alarini oladi. Gurjiston boshshahri Tiflis (Tbilisi)ni o‘zgadinlilarga qarshi kurashib fath qiladi. Temurbek G‘oziylik urushidan keyin Qorabog‘ga boradi. 1387-yil To‘qtamish Kaspiy (Xorazm dengizi)ning kunbotari oldidan o‘tgan yo‘l orqali Ozarbayjonga qarab qarab qo‘shin jo‘natadi. Temurbek qo‘shini ol qo‘shin g‘ajirchilari To‘qtamish qo‘shinini uradi. Amir Temur karvontalar Turkman qaroqchilarini yo‘qotish uchun Oydin, Avniq va Arzirum qal’arini yiqitadi. Keyin Van va Vaston o‘lkalari tomon yo‘l oladi. Van qal’a qamali 20 kun cho‘ziladi va qal’a egallanadi. Kurdiston va Urmiya Turkiga o‘z noiblari belgilaydi. 1387-yil kuzida Fors o‘lkasiga qarab yuradi. Xamadon o‘lkasidan o‘tib Isfahon qal’asini egallaydi. Biroq Isfahonliklarning yanglish urushi sabab Isfahon shahri eli qirg‘in qilinadi. Shu yil oxirida Sheroz shahri olinadi. Biroq Temurbek To‘qtamishxonning ontlashmani buzib Movorounnahrga qilgan yurishi ketidan Samarqandga qaytadi.

1388-yil ko‘klam chog‘ida Amir Temur Xorazmga 5-gal yurish qiladi. Xorazm qal’asini buzib ichiga arpa ektiradi va shahar elini Samarqandga ko‘chirtiradi. So‘ngra To‘qtamishxon tomon qo‘shin tortib boradi. 1389-yil Temurbekning izidan kelayotganini bilib qolgan To‘qtamishxon ortiga chekinib ketadi. Kengash bilan so‘zlashgan Temurbek Jeta tomon 5 chi yurishini qiladi. 1389-yil yozida Jeta qo‘shinlarini yengib Samarqandga qaytib keladi. 1391-yil Dashti Qipchoq tomon yurish qiladi. Amir Temur 18/06/1391 Qunduzcha urushida To‘qtamishxon bilan to‘qnashadi. Qo‘shinini yetti bo‘lak qilib tizgan Temurbek yog‘iyni yengadi. 1392-yil ko‘klam boshida Samarqandga qaytadi.

1392-yil yozida o‘tmishda 5-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi. Omul va Gitisiston qal’asi olinadi. Temurbek 1393-yil boshida Iroq tomon qarab yuradi. Olinmas deb atalgan Safed qal’asi olinadi. Potila yeri yaqinidagi urushda Temurbek Fors o‘lkasing shohi Shoh Mansurni yengadi va Shoh Mansurning boshi kesiladi. Temurbek Eron o‘lkasi noibligini Muzaffar oilasidan olib o‘z beklariga bo‘lib beradi. 1393-yil kuzida Bog‘dodga yetib keladi. Sulton Ahmad Jaloyir urushsiz qal’ani tashlab qochadi va Temurbek Bog‘dodni egallaydi. 1393-yil qish boshida olinmas deb atalgan Tikrit qal’asi olinadi. Ortidan Diyorbakr tomon jo‘nab u yerda o‘z yo‘rig‘ini o‘rnatadi.

1394-yil Ruha (Urfa) tomon borib u yerda o‘z yo‘rig‘ini o‘rnatadi. 1394-yil yanvarda Temurbekning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx o‘ladi. Mardin qal’asi olinadi. Ortidan 3-4 ming yildan buyon olinmagan Homid qal’asi olinadi. 14/07/1394 da Avniq qal’asi yiqitiladi. Amir Temur Gurjiston o‘zgadinlilari ustiga yana bir bor yurish qilib talaydi. Ortidan To‘qtamishxon ustiga yurish qiladi. 15/04/1395 da Tarak daryosi yoqasida Temurbek To‘qtamish bilan to‘qnashadi. Temurbek To‘qtamishxonni tamoman yengadi. Temurbek Jo‘jixon ulusini urish uchun O‘rus tomon yuradi. Ulus boshshahri Saroy Botu qal’a shahri qulatiladi. Ortidan Qorasuv (Voronej) otli O‘rus viloyati yag‘molanadi. Keyin Maskav (Moskva) shahri tomon yuradi va u yerni talaydi. Temurbek Ozoq (Azov) qal’asini oladi.

1396-yil Temurbek Elburzko‘hga qaytadi. Olinmas deb atalgan Kula va Tovus qal’alarini oladi. Temurbek Kavkaz va shimoldagi o‘lkalarda o‘z hokimiyatini o‘rnatgandan keyin 18/07/1396 Hamadondan Samarqand tomon yo‘lga tushadi. 1398-yil Amir Temur Chinga yurish qilishni istagan bo‘lsada kengash so‘ziga ko‘ra Hindiston tomon yuradi. Musulmonlar so‘rovi sabab 1398-yil yoz boshlarida Katur gabr (kofir)larini yo‘q etadi. 1398-yil sentabrda Puriyon Afg‘onlarini yengadi. 25/10/1398 da Shohnavoz qal’asi olinadi. Ketidan Batnir, Sarasati, Fathobod va Amurani kentlari yerlari davlat yerlariga qo‘shib olinadi. Temurbek 1 oy ichida 20 dan ortiq qal’a qamallari va urushlarda yutadi. 16-17/12/1398 Dehli sultoni Mahmud Sulton bilan to‘qnashadi. Temurbek Filli Mahmud Sulton qo‘shinlarini sochib yanchib tashlaydi. 18/12/1398 da Dehlida Temurlilar davlati bayrog‘i ilinadi. Temurbek 10/01/1399 Gang daryosi bo‘yida gabrlarga qarshi urushadi va dushmanni yengadi. 12/01/1399 da bir kunda 3 bora urushadi va yovlarining barisini yengadi. 14/10/1399 da Hindiston yurishidan qayta boshlaydi. Suvalak tog‘ida dinsizlarga qarshi va Jammu o‘lkasida o‘zgadinlilarga qarshi g‘azo qiladi. Amir Temur 28/04/1399 da Samarqandga kirib keladi. Shu yil kuzida o‘tmishda 7-yillik yurish oti bilan ingan yurishini boshlaydi.

1400-yilda Gurjiston tomon yurish qiladi. Zarit va Svanet qal’alarini egallaydi. Bu yerda o‘z hokimiyatini o‘rnatib ortga qaytadi. Shom o‘lkasi tomon yo‘l olgan Temurbek Bihishti va Ayntob qal’alarini oladi. 28/10/1400 da Temurbek Halab qal’asini oladi. Xama, Xams va Ba’albak kentlari egallanadi. 05/01/1401 da Damashq urushida Temurbek Mamluq davlati sultoni Farajni uzil-kesil yengadi. Temurbek Damashqni oladi. Keyin Shomdan Iroq tomon yuradi. 09/07/1401 da Temurbek Bog‘dodni qayta egallaydi va buzdiradi. Keyin Tabriz tomon yuradi. Undan chiqib Qorabog‘ tomon yuradi. Bu orada Usmonli bilan orasi sovigan Temurbek Rum (Anado‘li, bugungi Turkiya) tomon yuradi. Shu qishda Tartum qal’asi ortidan Qamoh va Horun qal’alarini oladi.

Qaysariya va Anquriya (Anqara) qal’a qamallari chog‘ida Boyazid Yildirim qo‘shini bilan Anqara yaqiniga kelganini bilgan Temurbek Boyazitga qarshi qo‘shinini tizadi. 20/07/1402 Anqara urushida Temurbek Boyazid Yildirimni uzil-kesil yengadi. Yengish yorliqlari dunyoning 4 tomoniga yuboriladi. Birin-ketin Rumdagi shaharlar egallanadi. 02/12/1402 da Amir Temur Izmir tomon yuradi. 14 kundan qisqa chog‘da 7 yil Usmonli davlati olib bilmagan Izmir qal’asi olinadi. Ortidan

Egridir va Nasibin qal'alari olinadi. Temurbek Rum viloyatidan chiqib Gurjiston tomon yuradi. Umuman olib bo‘lmas deb atalgan Kartin qal'asini oladi. Qishni Qorabog‘da o‘tqazgan Temurbek 26/03/1404 da Samarqand tomon yuradi. 19/05/1404 da yana biror bora umuman olinmagan qal'a Feruzko‘h qal'asi 2 kunda oladi. 1404-yil iyulda Amir Temur Samarqandga kelib tushadi. 1405-yil Xitoyni olishni istagan Temurbek Xitoy tomon yurishini boshlaydi. 14/01/1405 da O‘trorga kelib tushadi. Biroq yurish yakuniga yetmaydi. 1405-yil 18-fevralida ayozning ayozli kunlarida Temurbek O‘trorda hayotdan ko‘z yumadi. 23/02/1405 da Sohibqiron Amir Temur Samarqandda Go‘ri Amirda ko‘miladi.

Hikoya qilishlaricha, qadim zamon hakimlaridan biri o‘z zamonidagi odamlarning yomonligidan ko‘ngli og‘ribdi va bu donolik sohibi bo‘lgan zot shahardan chiqib ketib, tog‘ning teiasida (ustida) yashay boshlabdi. Ammo eshigi oldiga bir mohir rassomni tayin qilib qo‘yibdi. Shahar xalqidan kimki bu faylasuf olimni ziyorat qilish uchun kelsa, mazkur rassom u kishining suvratini qog‘ozga chizib, hakimga olib kirib ko‘rsatar ekan. Hakim suvratni "Ilmi qiyofa" bo‘yicha diqqat bilan kuzatib, agar qiyofasida yaxshi kishining belgilarini toisa, ichkariga kirishiga ruxsat berar va u bilan suhbat qilar ekan. Bordi-yu yuzidan, xiyonatkorlik belgisi namoyon bo‘lsa darvozadan qaytarib yuborar ekan.

Kunlardan bir kun bir kishi uni ziyorat qilish uchun keladi. Rassom o‘z odati bo‘yicha u kishining rasmini chizib, hakimga kiritdi. Hakim rasmni diqqat bilan kuzatib, bu kishining yomon va ko‘ngli qora ekanligidan xabar toiib, ichkariga kirishiga ruxsat bermay, darvozadan qaytarib yuborishga ishorat qildi. Boyagi kishi esa hakimga: "Ey hakim sen qiyofamga qarab, mening yomon fe'lli kishi ekanimdan xabar toiding. Ha bu rost. Lekin men riyozat va mehnat sabablari barcha yomon xislatlardan o‘zimni tozalab, eng yaxshi sifatlar bilan bezanganman. Mendan birorta zarar yuz beradi, deb o‘ylama va fayz taratuvchi suhbatingdan mahrum qaytarma", - degan xabarni kiritdi. Shundan so‘ng hakim o‘z huzuriga yo‘l berdi. U hakim bilan o‘zaro suhbatlashib, so‘ng manzilga qaytdi(4).

Kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, notiq, ruhshunos Amir Temur ham inson qiyofasini o‘qish san'atini ham puxta bilgan. U o‘zining butun hayoti davomida ushbu san'at ilmidan juda unumli foydalangan. Uning "Amir Temur o‘gitlari"da qiyofa ilmidan juda unumli foydalanganini, shu bilan birga, bu san'atni o‘rganganligini mamnuniyat bilan alohida ta'kidlab o‘tadi. "Samarqand taxtini egallab, azim Movaraunnahr bizning hukmimiz ostiga kirgach, yurtda adolat o‘rnatmoqqa ahd etdik. Arkonu davlat atrofinda ko‘p nobakor mardumlar in qurmoqchi erdi. Inchunin, ularning zamzamasidan xunob bo‘lib, bir tadbir qilmoqni buyurdim. Musavvir kelgan arzigo‘yning qiyofasini ko‘rib, qabulimni aytarmen... musavvirlar saroyga kelganlarning suvratini chizib, mening huzurimga kiritar, arzigo‘yning peshona, burun, dahan, ko‘z va boshqa sifatlariga qarab, uning maqsad va fe'lini oldindan bilib turar erdim. Badfe'l va xiyonatkorlarni qabulimg‘a yo‘latmaslik harakatida bo‘ldim. Bunda pirim shayx Shamsiddin "Ilmi qiyofa", qiyofaga qarab baho berish va oldindan taqdirni bashorat etish ilmini mukammal egallaganligim g‘oyat qo‘l keldi. Ittifoqo bir arzgo‘yning suvratini keltirishdi. Suvratga tikilib, aning g‘iybat va bo‘htonga ruju qo‘yganini angladim. Qabulimg‘a aning kirishi chun ijozat bermadim. Ammo ul mulozimlarg‘a zo‘rlik bilan huzurimg‘a g‘avg‘o solib kirdi. "Sohibqiron", derdi u kishi, Siz haqsiz, olding‘i umrimda men ko‘plar qatori g‘iybat va bo‘htong‘a ruju qo‘ydim. Ammo hozir chin ko‘ngil kishisi erurmen. Naylayki, zamon zayli meni shu ko‘ylarg‘a soldi... Ortiq bularg‘a chidashim mushkul. Arzim ham zamona zaylidandur. Fayz berg‘uvchi suhbatingdan mendek bir fuqaroingni mahrum etmag‘il! Shundan so‘ng qabul qilishg‘a rozi bo‘ldim va mulozimlarg‘a arzgo‘ylarning arzlarini tingloytirg‘on xos xonag‘a olib kirishlarig‘a izn berdim. Mulozimlar bul kishini xonag‘a boshlashdi"(5).

Amir Temur Qiyofa ilmidan xabardor bo‘lganligi uchun ham yaxshi, yomon insonlarni farqiga borgan.

Ha, darhaqiqat sohibqiron Amir Temur bosib o‘tgan yo‘larini sarkitob qilsak, ilm xazinasi bisyordir. Shuni bilingkim, tarixning guvohlik berishicha, insoniyat yuzaga kelibdiki, u doimo ezgu niyatlar bilan yashagan, sohibqiron Amir Temur shunday bardoshli, ilmli, qolaversa, qonunshunos, talantli me'mor, notiq, ruhshunos bo‘lgan. Ular shunday hayot kechirganki, o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan, qalbimizda, mangu, abadiy yashaydi, biz doimo hurmat bilan, faxr bilan vatandoshimizni yodga olamiz.

References

1. Темурнома; Составитель: Салохиддин Тошкандий; Год издания: 1991; Язык: Узбекский (кир); Страницы: 352 ; Издательство: Чўлпон.
2. Qurbonova G.A. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta'siri (tasviriy san'at yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilar misolida) nomli dissertatsiya 2008y.
3. С.Булатов, М.Кучкаров Инсон қиёфасини ўқиш санъати (физиогномика). – Тошкент, 2004. - 95 б.
4. Амир Темур ўгитлари (тўплам) / Тузувчилар: Б.Ахмедов, А.Аминов. –Тошкент: наврўз, 1992. -54-55 б.
5. Raximov Z.M. Tumuriylar davri ilmida musiqaning san'at turiga aylanishi. – 2016. - № 15 (119).- S.-T.3.11-14.
6. Darvish Ali Changi, Traktata o muzike, Tashkent. 1989.
7. Qiyofat ul-bashar: Qiyofaga qarab aniqlash // Mas'ul muharrir M. Hakimjon.- Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. -23 b.